

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELARI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

TALABALARNI ARXITEKTURA YODGORLIKLARI VA MILLIY MADANIY MEROSLAR VOSITASIDA TARBİYALASHNING PEDAGOGIK MAZMUNI, SHAKL VA USULLARI

Q.Primbetov

*Ajiniyoz nomidagi NDPI «Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi»
kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi,
(PhD)*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. Bu jihatdan globallashtirish jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumanda «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifatli shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir», degan xulosasi esa BMTga a'zo barcha davlatlar vakillarining diqqatini o'ziga qaratgani bejiz emas»[1].

Darhaqiqat, istiqlol tufayli xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o'zligini anglashga intilish kuchaydi. Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilishi, uning yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatining ochib berilishi o'ta muhimdir. Talabalarni milliy meroslar vositasida tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan ko'p ilmiy izlanishlarda aynan milliy meroslar olamiga sayohat qilish orqali ularda milliy qadriyalarga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish ishlari o'z yechimini to'la topmagan. Uni yaxlit pedagogik jarayonda shakllantirish zarurati bir qator sabab va asoslarga tayanadi.[2]

Mustaqillik yillarida boy tarixiy va madaniy meroslarimizga ma'naviy madaniyatimizga bo'lgan e'tibor butunlay o'zgarib, asosiy egasi bo'lgan xalqqa qaytarib

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMIY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

berildi. Natijada, xalqimizning boy madaniy meroslari bugungi kunda o‘z tarixini chuqurroq o‘rganishga, o‘zligini va milliyiligini anglashga xizmat qilib kelmoqda.

Madaniy meroslar xalqning rivojlanish yo‘lida aniq bosqichlarining yuzi bo‘lishi bilan birga kelajak avlodning ma‘naviy tomondan o‘shiga o‘zining kuchli ta‘sirini ko‘rsatadi. O‘zi tug‘ilib o‘sgan yerni qadrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashda madaniy meroslarning ahamiyati juda ham katta.

Qo‘yqirilganqal’a - Markaziy Osiyodagi eng qadimgi maqbara ibodatxona va observatoriya ega, Tuproqqal’ada esa Yunoniston va Rim saroylari va ularning bezaklaridan qolishmaydigan saroylar, haykallar, freskalari bilan bezalgan. Buyuk Xitoy devoridan yuz yilga yaqin keyin qurilgan Daukesken devorida, ertaklardagi yer osti saroylariga o‘xshaydigan Mazlumxon suluvda bo‘lgan va ularning tarixi bilan yaqindan tanishgan yoshlarning har birida faxrlanish tuyg‘ularining uyg‘onishi, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtiga bo‘lgan muhabbatini yanada oshishi so‘zsiz [3]. Madaniy meroslarda aks etgan ajoyib “obraz”lar har bir insonda Vatan tuyg‘usining ajralmas bir qismiga aylanadi. Bunga tarixdagi Yunonistonning nishoni sifatida «Akropol» yodgorligi qabul qilinganligi, 1830-yilda o‘zining mustaqilligini qo‘lga kiritishiga bog‘liq Akropoldagi Parfenon kolonnalarining birini qayta tiklash orqali Yunonistonning qayta tiklanishi degan tushunchani qabul qilinishi yorqin misol bo‘la oladi. Bunday tushuncha tuyg‘ularini yurtimiz misolida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishidagi ramziylikni buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan bog‘lik tarixiy meroslarning qayta tiklanishi, Samarqanddagi Registon maydonisiz yoki Go‘ri Amir, Bibixonim yodgorligisiz, Buxoroning somoniylar maqbarasisiz, Minorayi Kolonisiz, Xivadagi Ichan qal’a, Pahlavon Mahmud pir, Kaltaminor, Islom xo‘ja minorasisiz xayolga keltirish mumkinmi? Aslo! Demak, Qoraqalpog‘istondagi yuqorida so‘z yuritilgan obidalarni ham yetti ajoyib mo‘jizasiz ko‘z oldimizga keltirib bo‘lmas ekan. Albatta, o‘lkamizda ulardan boshqa ajoyib madaniy meroslar ham ko‘p. Hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 230 dan ortiq madaniy meros obeykterlari davlat ro‘yxatiga olingan. Jumladan, 122 ta arxeologik, 6 ta arxitektura, 102 ta tarixiy madaniy va monumental yodgorliklarni atab o‘tish mumkin. Shuningdek, o‘rta asr musulmon dunyosida nomlari mashhur bo‘lgan Sulton Uvays bobo (VII asr), Abdulla Norinjoni, Shibiliy ota (X asr), Sulaymon Boqirg‘oniy (XII asr) singari islom dinining yirik vakillari, tasavvuf shayxlari bilan zamonasining yetuk shoirlari qabrlarining tuprog‘imizda joylashishining o‘zi ham biz uchun faxr emasmi? Sababi shu tabarruk joylarga shuningdek, Murod shayx, Imom eshon, Qoraqum eshon, Qushxona, To‘qmoq ota, Dovut ota, Azizlar bobo, Oxun bobo, Qo‘chqor ota, Qum o‘zak eshonlari, Qovoqli ota, Shayx

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

Abbaz Valiy ota singari qadamjolar xalqimizning ziyorat qilish joyi bo'lishi bilan birga ularning ma'naviy tomondan poklanib tozalanishiga xizmat qiladi[4]. Tarixiy va madaniy meroslarning qurilish materiallari ulardan topilgan topilma buyumlar hattoki, yodgorliklarning atamaları ham xalqimiz tarixini yanada kengroq va chuqur bilishga xizmat qiladi. Unga qoraqalpoq xotin-qizlarining bezak buyumlarini, milliy naqshlarini yoki xalqimizning urf-odat, ana'analarini eslatadigan Tuproqqal'adagi topilmalar bilan uning devorlardagi rangli ko'rinishlar, shuningdek, qal'a qurilishi uchun ishlatilgan har biri hozirgi sakkizta g'ishtga teng keladigan xom g'ishtlar va qoraqalpoq urug'larining tamg'alariga yaqin belgilarning uchrashishi yorqin dalil bo'la oladi. Donolar «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q» –deb bejizga aytmasa kerak. Sababi shunday boy madaniy meroslarga ega bo'la turib, ularni hali to'liq yaxshi bilmaymiz. Uning o'rniga o'lkamizdan tashqarida joylashgan ajoyib yodgorliklar to'g'risida balandparvoz gapirishga va borib ko'rishga ko'proq odatlanib kelganmiz. To'g'ri, jahon madaniyati xazinasidan joy olgan, yurtimizdan tashqaridagi ajoyib madaniy meroslarni bilishga imkoniyat bo'lsa, ularni borib ko'rishga nima yetsin? Lekin dastlab o'zimizning boy madaniy meroslarimizni yaxshiroq o'rganib olgandan keyin ularni borib ko'rganimiz ancha foydaliroq bo'lishi mumkin. Sharq donishmandlarining «Insonning oyog'i o'zi tug'ilib o'sgan joyida ildiz bog'lashi kerak, lekin uning nazari dunyoni kuzatsin» degan dono so'zini inobatga olganimiz to'g'riroq bo'lsa kerak. Hozirgi kunda jahon miqyosida ko'pgina davlatlar o'zlarining tarixiy va madaniy yodgorliklarini qadrlab ulardan har tomonlama foyda ko'rmoqda. Masalan, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Andorra singari katta-kichik davlatlarning milliy mablag'ining ellik foizini yoki undan ham ko'proq qismini o'zlarining yurtiga kelgan sayyohlardan olib iqtisodiy foyda ko'rayotgani hech kimga sir emas. Misr davlatining bir yilda sayyohlardan ko'radigan daromadi to'rt milliard Amerika dollarini tashkil qilar ekan.

Insoniyat tarixi o'z ichiga bir nechta yuz ming yillarni qamrab oladi. Qoraqalpog'iston hududida shu davrlarning deyarli barcha davrlariga tegishli yodgorliklar uchraydi. Ustyurt tekisligida aniqlangan Esen, Shaqpaqli hamda Qoraquduq yodgorliklari yurtimizda insoniyatning bundan bir yuz oltmish ming yildan ortiq davrdan buyon yashab kelganligidan dalolat beradi. Janubiy Orol bo'yi tarixidagi birinchi markazlashgan Xorazm davlatiga asos solindi.[5]

Qadimgi davrlardan Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining yurtimizdan o'tgan tarmog'i bo'ylab o'rta asrlarda karvon saroylar minoralar va bozorlar quriladi.

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMIY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

Shunday ekan, Markaziy Osiyodagi madaniy meroslarga eng boy o'lkalardan biri bo'lgan Qoraqalpog'istonda nima uchun ushbu masala hozirgi kungacha yo'lga qo'yilmagan? Demak, bu masala maxsus qaralishi va bu bo'yicha tez orada yechim qabul qilinib, turizm sohasi ishga tushirilishi zarur. Chunki bozor iqtisodiyoti munosabati davom etayotgan bugungi kunda ishning ko'zini bilgan har bir ishbilarmon yurtimizga kelayotgan chet ellik sayyohlardan qonuniy tarzda foyda ko'rsa bo'lar edi. Bu birinchidan, o'zi tug'ilgan maskanning tarixi, urf-odati, madaniyati, ma'naviy dunyosi, an'analari va sanoati bilan dunyoni xabardor qilish bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodiy tomondan daromad olinadi hamda sayyohlarning ko'payishi bilan ularga xizmat ko'rsatishning yangi turlari tashkil qilinib ko'pgina ish joylari paydo bo'ladi.

Talabalarni arxitektura yodgorliklar bilan tanishtirishda turizmning ahamiyati kattadir. Shu tufayli turistik sayohatlar tashkil etish rejasini taklif etish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatimizning tez sur'atlarda axborotlashuvi sharoitida yoshlar ma'naviy qiyofasi takomillashuvining ijtimoiy-ma'naviy masalalari shu darajada dolzarbki, bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar nafaqat maktab, litsey, oliy o'quv yurtlari, balki oila, mahalla, yoshlar bilan ishlaydigan jamoat tashkilotlari o'rtasida o'rnatilgan mustahkam aloqalar asosida izchillik bilan amalga oshirilib, ularning dunyoqarashlarida vatanparvarlik tuyg'usini to'liq shakllantirganimizdagina biz ko'zlangan maqsadimizga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017-yil 20-sentabr.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati // tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
3. Mambetullaev M. Pamyatniki Xorezmskoy pismennosti / Sovetskaya Karakalpakiya, 1976.
4. Xodjaniyazov G. Estelikler ótmishten sóyleydi // Erkin Qaraqalpaqstan. – Nókis, 18-aprel, 2015
5. Xodjaniyazov G. Nazlımxan sulıw // Aral qızları. – Nókis, 1992.